

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI

**JAMIYATDA IJTIMOYIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH, MAHALLA  
INSTITUTINI YANADA QO‘LLAB-QUVVATLASH HAMDA OILA VA XOTIN-QIZLAR  
BILAN ISHLASH TIZIMINI YANGI DARAJAGA OLIB CHIQISH CHORA-  
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘tgan qisqa davrda aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo‘yicha “mahalla — sektor — Xalq qabulxonasi — mahalla” tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o‘rtasida ishonchli “ko‘prik” bo‘lishini amalda ta‘minlash, oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, fuqarolar yig‘inlariga xos bo‘lmagan funksiyalar yuklatilayotganligi, ularning boshqa quyi idoralar bilan hamkorligi tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, oila, xotin-qizlar va keksalarga yordam ko‘rsatishning yaxlit tizimi mavjud emasligi, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar samarali natija bermayotganligi jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta‘minlashga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Aholi osoyishtaligini ta‘minlash, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, nuroniylar ijtimoiy faolligini oshirish, mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari roli va mavqeyini yanada mustahkamlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

1. Alohida ta‘kidlab o‘tilsinki, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi **Qonuniga** muvofiq fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi, shuningdek, davlat organlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko‘maklashadi.

2. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi va mahallalar faollarining har bir mahallada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan quyidagi yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi yangi tizimni joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin:

jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish;

xotin-qizlar ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma‘naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish;

mahalla institutining ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari va ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika (katta) inspektorlarining (keyingi o‘rinlarda — profilaktika inspektori) roli va mavqeyini yanada oshirish, mustaqilligi hamda vakolatlarining amaliy samaradorligini ta‘minlash;

sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda xodimlarning mehnatini munosib rag‘batlantirish va moddiy-texnika ta‘minotini yaxshilash.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etilsin.



*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PQ-4602-sonli qarori.*

4. Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o'rnatish;

oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, "Sog'lom oila — sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish;

xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash;

xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, aholi kundalik muammolari bilan ishlash va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi mavqeyini yuksaltirish;

mahallalarda qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

yolg'iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga moddiy ko'maklashish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish, nuroniylarning bilim va boy hayotiy tajribasidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash masalalarida samarali foydalanish;

fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda "Mahalla" o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilsin va Vazirlik tuzilmasiga o'tkazilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish yuzasidan Hukumat qarorini qabul qilsin.

6. Quyidagilarning:

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi rahbar organlarining ushbu tashkilotlarni tugatish haqidagi;

O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi "Nuroni" jamg'armasining (keyingi o'rinlarda — "Nuroni" jamg'armasi) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) bo'limlarini tugatish haqidagi qarorlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. O'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ularning ongiga singdirish hamda yuksak ma'naviyatli va sadoqatli qilib voyaga yetishlarida keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida Vazirlik

“Nuroni” jamg‘armasi hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda amalga oshiradigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin.

Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirining (keyingi o‘rinlarda — vazir), Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirining hamda viloyatlar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari boshliqlarining tegishli o‘rinbosarlari — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari huzuridagi mintaqaviy bo‘linmalari raislari hisoblanadi.

#### 8. Quyidagilar:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tuzilmasiga — vazir bilan kelishilgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Vazirlar Kengashi Raisi o‘rinbosari — mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri lavozimi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalariga — vazir bilan kelishilgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan hokim o‘rinbosarlari — mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari boshliqlari lavozimi;

tuman (shahar) hokimliklari tuzilmalariga — vazir bilan kelishilgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan hokim o‘rinbosari — mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i lavozimi kiritilsin.

#### 9. Quyidagilar:

Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasidagi — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari — Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tuzilmasidagi — Vazirlar Kengashi Raisi o‘rinbosari — Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimi;

viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmalaridagi — hokim o‘rinbosari — Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimi;

tuman (shahar) hokimliklari tuzilmalaridagi — hokim o‘rinbosari — Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimi tugatilsin.

#### 10. Belgilab qo‘yilsinki:

Vazirlik oila, xotin-qizlar va keksalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

Vazirlik tomonidan o‘z vakolati doirasida qabul qilingan qarorlarning ijrosi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi;

Vazirlikning hududiy bo‘linmalari boshliqlari har chorakda tegishli xalq deputatlari Kengashlari yig‘ilishlarida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida uchrayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimi bo‘yicha axborot beradi;

vazir har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisida Vazirlik faoliyati yuzasidan hamda sohadagi tizimli muammolar va ularning yechimi to‘g‘risida axborot beradi;

Vazirlik xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlarga har tomonlama ko‘maklashish hamda ularning faoliyati samaradorligini oshirishga mas‘ul hisoblanadi.

11. O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi (keyingi o‘rinlarda — “Mahalla” fondi), Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi hamda “Nuroni” jamg‘armasining:

“Mahalla” fondi mablag‘lari hisobidan “Nuroni” jamg‘armasi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar (oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni to‘lashdan tashqari) va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlariga bir yilda bir marta to‘lanadigan lavozim maoshi miqdoridagi moddiy yordam xarajatlarini moliyalashtirish;

Vazirlik hududiy bo‘linmalari boshliqlarining birinchi o‘rinbosarlarini — Xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari raislari etib belgilash;

Vazirlik hududiy bo'linmalari boshliqlarining tegishli o'rinbosarlarini — Nuroniylar jamoatchilik kengashlari raislari etib belgilash to'g'risidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlansin.

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi va keng jamoatchilikning:

fuqarolar yig'ini raisi besh yil muddatga saylanishi haqidagi;

mahalla institutining jamiyatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rini hisobga olib, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 22-mart sanasini "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

13. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda profilaktika inspektorlariga yuklatilgan, boshqa davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlarini takrorlovchi, ortiqcha va xos bo'lmagan vazifa va funksiyalar **1a** va **1b-ilovalarga** muvofiq ro'yxatlar bo'yicha qisqartirilsin.

Vazirlik va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda mazkur band ijrosi yuzasidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga asosiy faoliyat yo'nalishlaridan tashqari funksiyalarni faqatgina davlat organlari va tashkilotlar bilan haq to'lashni nazarda tutuvchi shartnoma asosida amalga oshirish huquqi berilsin.

14. Vazirlik fuqarolar yig'inlari xodimlarini ularning vazifa va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilish va boshqa tadbirlarga jalb qilish, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, taalluqli bo'lmagan vazifalarni yuklash taqiqlanganligi haqidagi talabga amalda so'zsiz ijro etilishini ta'minlasin.

Mazkur talabni buzganligi uchun davlat organlari va tashkilotlari mas'ul va mansabdor shaxslarini egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan jazo choralarini qo'llash bo'yicha har choraklik asosda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga takliflar kiritib borish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

15. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuzilmasida:

a) quyidagi lavozimlar tugatilsin:

fuqarolar yig'ini raisi o'rinbosari — ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha maslahatchi;

fuqarolar yig'ini raisi o'rinbosari — tadbirkorlik, tomorqa yer egalari faoliyatiga ko'maklashish va obodonlashtirish ishlari bo'yicha maslahatchi;

fuqarolar yig'ini raisi o'rinbosari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi;

fuqarolar yig'ini raisi o'rinbosari — keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchi;

b) quyidagi lavozimlar kiritilsin:

fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari;

fuqarolar yig'ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari;

fuqarolar yig'ini raisining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosari;

oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis;

fuqarolar yig'ini raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi;

fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchisi;

v) quyidagi jamoatchilik tuzilmalari tugatilsin:

yarashtirish komissiyasi;

ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya;

ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya;

voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;

tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya;

jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya;

"Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi;

g) quyidagi komissiyalar tashkil qilinsin:  
oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi;  
ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha komissiya.

16. Belgilansinki:

fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasini bajarish profilaktika katta inspektori, ushbu lavozim mavjud bo'lmagan taqdirda profilaktika inspektori zimmasiga yuklatiladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

har bir mahallada uning kriminogen vaziyati va aholi sonidan kelib chiqqan holda kamida bir nafardan profilaktika inspektori xizmatni olib boradi. Bunda, yangi mahallalar tashkil etilganda kiritiladigan shtat birliklari soni Ichki ishlar vazirligi tomonidan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi hamda respublika budjeti hisobidan moliyalashtiriladi;

*(16-bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-martdagi PF-6188-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son)*

fuqarolar yig'ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari lavozimi xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi o'rniga, har bir fuqarolar yig'inida bir nafardan, shuningdek, mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlagan holda joriy etiladi;

oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis lavozimi xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi o'rniga, oilalar soni 2 000 va undan ortiq bo'lgan fuqarolar yig'inida bir nafardan, shuningdek, mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlagan holda joriy etiladi;

fuqarolar yig'ini raisining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi fuqarolar yig'ini mas'ul kotibi lavozimi o'rniga, har bir fuqarolar yig'inida bir nafardan, shuningdek, mahalliy budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlagan holda joriy etiladi;

fuqarolar yig'ini raisining yoshlar masalalari bo'yicha hamda keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchilari jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi;

fuqarolar yig'ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha hamda obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, shuningdek, oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis fuqarolar yig'ini raisi taqdimiga asosan fuqarolar yig'ini kengashi tomonidan lavozimga tasdiqlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

17. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

fuqarolar yig'ini raisi — keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchi, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, "Keksalar maslahati" guruhining;

fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi, "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhining;

fuqarolar yig'ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari — xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya, "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasining;

fuqarolar yig'ini raisining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosari — ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati bo'yicha hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyalarning faoliyatini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi.

18. Fuqarolar yig'ini raisiga quyidagi qo'shimcha huquqlar berilsin:

tegishli hududdagi profilaktika inspektori faoliyatiga baho berish hamda uni rag'batlantirish yoki unga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan jazo choralarini qo'llash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati

ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritish;

uy-joy mulkdorlarining umumiy yig'ilishiga boshqaruvchi tashkilot, boshqaruvchi yoki shirkat boshqaruvi raisi bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish to'g'risida taklif kiritish;

ko'p kvartirali uylarni boshqarish bilan bog'liq masalalarda uy-joy mulkdorlarining roziligi asosida ularning nomidan boshqaruvchi tashkilot, boshqaruvchi yoki shirkat boshqaruvi raisi bilan o'zaro munosabatlarga kirishish.

19. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining quyidagi lavozimlarni o'zgartirish bo'yicha taklifi ma'qullansin:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari boshliqlari, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'ining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimlari tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining o'rinbosarlari — huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari boshliqlari lavozimiga;

tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshliqlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari — huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi (bo'linmasi) boshliqlari, yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimlari tegishincha tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshliqlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimlariga.

20. Belgilansinki:

profilaktika inspektorlari 5 yil muddatga lavozimga tayinlanadi hamda ularni mazkur muddat davomida boshqa lavozimga o'tkazish taqiqlanadi (yuqori turuvchi rahbarlik lavozimga o'tkazish yoxud qonun yoki ichki tartib qoidalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortish holatlari bundan mustasno);

tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshliqlari, ularning tarkibidagi bo'limlari va ichki ishlar bo'limlari (bo'linmalari) boshliqlari ustuvorlik asosida profilaktika inspektori lavozimida kamida 5 yil ishlagan xodimlari orasidan tayinlanadi;

profilaktika inspektorlari lavozimlariga, qoida tariqasida, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tayinlanadi;

profilaktika inspektorini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining o'rinbosarlari — huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari boshliqlarining taqdimnomalariga asosan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining jamoat tartibini saqlash bo'yicha o'rinbosari tomonidan amalga oshiriladi;

tuman (shahar) ichki ishlar organlari boshliqlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri tomonidan uning jamoat tartibini saqlash bo'yicha o'rinbosari tavsiyasiga binoan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

profilaktika inspektorlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining jamoat tartibini saqlash bo'yicha o'rinbosari tomonidan, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining o'rinbosarlari — huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi;

hududiy ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlashni rag'batlantirish jamg'armalarining mablag'lari Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining o'rinbosarlari — huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmalari tomonidan qabul qiladigan qaroriga asosan belgilangan tartibda sarflanadi.

21. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha o‘rinbosariga — profilaktika inspektorlari faoliyatiga aralashganlik, ularni xizmat vazifalari bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga jalb etganlik uchun hududiy ichki ishlar organlarining rahbarlari va mas‘ul xodimlariga nisbatan bevosita intizomiy jazo choralarini qo‘llash vakolati berilsin.

22. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

ikki oy muddatda ichki ishlar organlarining amaldagi shtatlar soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida tegishli huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalarida kadrlar bilan ishlash bo‘limini (bo‘linmasini, guruhini) tashkil qilsin;

uch oy muddatda Oliy sud, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi bilan birgalikda huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularning barvaqt oldini olishga qaratilgan ta‘sirchan tizimni shakllantirish maqsadida profilaktika inspektorlarining ma‘muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish hamda bevosita ma‘muriy jazo choralarini qo‘llash vakolatlarini kengaytirish bo‘yicha qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

23. 2020-yil 1-apreldan boshlab, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (keyingi o‘rinlarda — FHDY) organlarining ishini tizimli nazorat qilish, malakali kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, huquqni qo‘llash amaliyotini muvofiqlashtirish, “FHDYning yagona elektron arxivi” axborot tizimini yuritish va FHDY organlarining hududiy arxivlariga rahbarlik bo‘yicha funksiyalarni yuklagan holda FHDY organlari Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tasarrufiga o‘tkazilsin.

24. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi:

Moliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Davlat xizmatlari agentligi tizimida FHDY organlari faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini;

o‘n kun muddatda “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari kuni”ni belgilash bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

25. Vazirlik:

a) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda fuqarolar yig‘inlari va profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini baholashning reyting tizimini takomillashtirish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

b) uch oy muddatda:

fuqarolar yig‘inlari raislarining o‘rinbosarlari va oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassislar lavozimlariga yetarli bilim va hayot tajribasiga, yuksak ma‘naviy va axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajara oladigan shaxslar tavsiya etilishi va tasdiqlanishi bo‘yicha fuqarolar yig‘inlariga har tomonlama yordam bersin;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan birgalikda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi alohida o‘quv kurslari tashkil etish bo‘yicha takliflarni kiritsin;

fuqarolar yig‘ini raisini saylash muddatini uzaytirish, ushbu jarayonini takomillashtirish va ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

26. Vazirlik buyurtma asosida hamda o‘zining budjetdan tashqari mablag‘lari va homiylik xayriyalari hisobidan:

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi hamda boshqa nodavlat tele- va radiokanallarda “O‘talar so‘zi — aqlning ko‘zi”, “O‘talar choyxonasi”, “Onalar mehri” va “Oila — jamiyat ko‘zgusi” kabi mavzularda ko‘rsatuv va eshittirishlarni milliy va tarixiy qadriyatlarini hisobga olgan holda muntazam tayyorlash hamda aholiga qulay bo‘lgan vaqtda namoyish etish;

“O‘zbekkino” Milliy agentligi bilan birgalikda fuqarolar yig‘inlari faoliyatini batafsil yoritishga qaratilgan, aholida mahalla institutiga nisbatan hurmat va iftixor ruhini shakllantirishga xizmat qiluvchi badiiy filmlar yaratish choralarini ko‘rsin.

27. Quyidagilar:

Mamlakatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan tizimni samarali joriy etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq;

fuqarolar yig‘inlari raislari va ularning oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma‘naviy masalalar bo‘yicha hamda obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, shuningdek, oila va xotin qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassislarning mehnatga haq to‘lash fondi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

28. Fuqarolarda mahallalarning rivojlanishi, obodligi va xavfsizligiga manfaatdorlik hissini yanada kuchaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Vazirlik va Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda 2020-yil 1-dekabrgacha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

*(28-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.04.2020-y., 06/20/5978/0393-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari va Budjet tashkilotlarining moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasi hisobidan 2020-yil 1-iyuldan boshlab fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining lavozim maoshiga 30 foiz qo‘shimcha maxsus ustama to‘lash joriy etilsin.

*(28-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.04.2020-y., 06/20/5978/0393-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(28-bandning uchinchi — beshinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.04.2020-y., 06/20/5978/0393-son)*

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori loyihasini;

bir oy muddatda keksalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini;

uch oy muddatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, mahalla tizimini rivojlantirish va jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etishning 2020 — 2024-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda kiritsin.

30. Vazirlik, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

31. Ushbu Farmon ijrosini tashkil etishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

O‘zbekiston Respublikasining mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri — ushbu Farmonda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirishda mas‘ul tashkilotlarga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatsin, chora-tadbirlar ijrosi bo‘yicha yuzaga keladigan joriy masalalar tezkorlik bilan hal etilishini ta‘minlasin hamda har chorakda Vazirlar Mahkamasiga ushbu Farmonning amalga oshirilishi jarayoni haqida batafsil ma‘lumot taqdim etsin;

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov va uning jamoat tartibini saqlash bo‘yicha o‘rinbosari A.I. Ikramov — har bir mahallada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizim to‘liq joriy etilishi hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va profilaktika inspektorlarining mustaqilligini ta‘minlash, jumladan faoliyatiga asossiz aralashmaslik va taalluqli bo‘lmagan vazifalarni yuklamaslik ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatilsin;



mas'ul vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari — ushbu Farmonda nazarda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarish yuzasidan barcha zarur choralarni amalga oshirsin;

O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori A.K. Ko'chimov, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi vazifasini bajaruvchi A.D. Xadjayev hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori — ushbu Farmonning mazmun-mohiyati, ahamiyati va mamlakatimizda oila, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlarni muntazam yoritib borsin.

32. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizamiddinov zimmasiga yuklansin.

## **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 18-fevral,  
PF-5938-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son **Farmoniga**  
1a-ILOVA

### **Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yuklatilgan, boshqa davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlarini takrorlovchi, ortiqcha va xos bo'lmagan qisqartirilayotgan vazifa hamda funksiyalar**

#### **RO'YXATI**

1. Fuqarolarga uy-joy fondidan foydalanishda hamda uning saqlanishini ta'minlashda ko'maklashish.

2. Kvartira mulkdori yo'qligida avariyaning bartaraf etish uchun xonadonga kirish.

3. Qarovsiz uy hayvonlari yoki qo'lga o'rgatilgan hayvonlarni egasini qidirish choralarni ko'rish, qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxsning iltimosiga ko'ra hayvonlarni boqish uchun zarur sharoiti bo'lgan shaxsni topish hamda hayvonlarni unga topshirish.

4. Imoratni qurish uchun qonunchilikda nazarda tutilgan hujjatlarning mavjudligi hamda shaharsozlik normalari va qoidalari asosida qurilganligini aniqlash.

5. Hududlarga ajratilgan kreditlarning maqsadli ishlatilishi va kreditlarning belgilangan muddatda qaytarilishini ta'minlash.

6. Dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirishga yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlarni amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etish uchun tuziladigan tuman (shahar) komissiya tarkibida ishtirok etish.

7. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish, mehnatni muhofaza qilishni ta'minlashda ishtirok etuvchi davlat organlari va boshqa organlarga ko'maklashish.

8. Aholi punktlari sanitariya jihatidan tozalanishiga hamda maishiy-ro'zg'or chiqindilari to'plab olib ketilganligi uchun to'lovlarni vaqtida to'lanishiga ko'maklashish.

9. Chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun abonentlar bilan shartnomalar tuzish va to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash.

10. Maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilitatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasidagi amaliy tizimni tashkil etish, qattiq maishiy chiqindilar bo'yicha majburiy to'lovlarni to'lovchi jismoniy shaxslarning hisobi yuritilishini tashkil etish.

11. Yong'in xavfsizligini ta'minlash masalasi uzoq vaqtdan buyon hal etilmayotgan obyektlar va aholi punktlariga reydlar tashkil etish.

12. Jismoniy tarbiya hamda sportni rivojlantirish uchun, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni jalb etish yo'li bilan, sharoitlar yaratish hamda ushbu sohada davlat dasturlari hamda boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

13. Bolalar-o'smirlar sport-moslashtiruvchi maktablarini, moslashtiruvchi bolalar-o'smirlar jismoniy tayyorgarlik klublarini tashkil qilish.

14. Mahallalarda futbol maydonlari va boshqa sport inshootlarini obodonlashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari, tuman (shahar) jismoniy tarbiya va sport bo'limlari, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasining hududiy bo'linmalariga ko'maklashish.

15. Yosh oilalarga sifatli ta'lim, tibbiy, huquqiy, axborot, maslahat va boshqa, jumladan bolalar sog'lig'ini saqlash va tarbiyalashni ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

16. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga qaratilgan profilaktika tadbirlarini amalga oshirish.

17. Har bir dehqon xo'jaligini va unga oid ma'lumotlarni xo'jalik kitobiga kiritish.

18. Ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy ahamiyatga molik obyektlari bo'lmagan hududda fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil etilganida mazkur hududni birlamchi obodonlashtirishni amalga oshirish.

19. Dehqon xo'jaligi uchun kerakli mol-mulk va ishlab chiqarish vositalarini birjalarda, yarmarkalarda, bozorlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olishda ko'maklashish.

20. Fermer va dehqon xo'jaliklariga yer uchastkalarini berish hamda ishlab chiqarish obyektlari va uy-joylar barpo etishda yordam ko'rsatish.

21. Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishiga ko'maklashish.

22. Foydalanilmayotgan yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni ularda mahsulot yetishtirishni va tovarlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun fermer xo'jaliklariga ijaraga berish.

23. Fermer xo'jaliklari boshliqlari va xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ko'maklashish.

24. Qishloq xo'jalik ekinlarining navli urug'lik hamda ko'chatlari, organik va mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalardan, kasalliklar hamda begona o'tlardan himoya qilish vositalari yetkazib berish yuzasidan davlat agrotexnika xizmati ko'rsatish tizimi orqali xizmatlar, shuningdek, texnikaviy xizmat ko'rsatish.

25. Qishloq xo'jaligi texnikasi, asbob-uskunalar va inventarlarni lizing asosida sotib olishga ko'maklashish.

26. Fermer va dehqon xo'jaliklariga zotdor chorva mollari va parrandalar, shuningdek, omixta yem sotib olishda ko'maklashish.

27. Fermer va dehqon xo'jaliklarining chorva mollariga veterinariya xizmati ko'rsatilishi uchun sharoitlar yaratib berish.

28. Fermer va dehqon xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotini tayyorlash va realizatsiya qilishda ko'maklashish.

29. Noqishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ishlab chiqarishlarni tashkil etayotgan fermerlarni rag'batlantirish.

30. Fermer va dehqon xo'jaliklariga konsalting va axborot yo'sinidagi boshqa xizmatlarni ko'rsatish.

31. Tegishli hududda barcha dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer uchastkalari kesimida yetishtiriladigan mahsulotning prognoz hajmlari to'g'risida qaror qabul qilish.

32. Tomorqa yer uchastkalarida yetishtirilgan mahsulotlar, shuningdek, boqiladigan chorva mollari va parrandalarning aniq hisobini yuritish maqsadida ekinlar, mahsulotlar hajmi, sotilgan, eksport qilingan va ichki iste'mol uchun qolgan miqdorlari to'g'risida har oy yakuni bo'yicha tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga ma'lumot taqdim etish.

33. O'rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko'paytirish, takroriy ko'paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan foydalanish sohasida davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda, shuningdek, boshqa tadbirlarda ishtirok etish, davlat organlariga ko'maklashish.

34. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

35. O‘simliklar karantini sohasida davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarni o‘tkazishda ishtirok etish.

36. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

37. Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

38. Veterinariya sohasida davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

39. Veterinariya bo‘limlariga itlarni quturishga qarshi o‘z vaqtida vaksinatsiya qilish uchun itlarni saqlaydigan fuqarolar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim qilish.

40. Yaylovlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha davlat, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish, tadbirlar o‘tkazilishiga ko‘maklashish.

41. Fuqarolar tomonidan kommunal xizmatlar haqini to‘liq va o‘z vaqtida to‘lashlarini kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan birgalikda tashkil etish va nazorat qilish.

42. Qishloq xo‘jaligi ekinzorlarida chorva va parrandalarni boqish, shunday ekinzorlar orqali avtotransport yoki qishloq xo‘jalik texnikasi, hayvonlarni olib o‘tish hamda ekinlarning payhon bo‘lishiga olib keladigan boshqa hollarga qarshi kurashish.

43. Toshkent shahar mahalla fuqarolar yig‘ini raislari tomonidan ichki ishlar bo‘limlarida o‘tkaziladigan yo‘riqnoma berishda kundalik ishtirok etish.

44. Simobli lampalarning ishlatilib bo‘lgan resurslarini aholi tomonidan topshirilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

45. Ko‘mir mahsulotlarining aholiga belgilangan tartibda taqsimlanishi va sotilishini ta‘minlash.

46. Zayomdan foydalanishning butun davrida zayomdan samarali va maqsadli foydalanishning doimiy monitoringini olib borish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoniga  
1b-ILOVA

### **Profilaktika (katta) inspektorlariga yuklatilgan, boshqa davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlarini takrorlovchi, ortiqcha va xos bo‘lmagan qisqartirilayotgan vazifa hamda funksiyalar**

#### **RO‘YXATI**

1. Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari ekin maydonlarini xatlovdan o‘tkazish, ularda yil davomida ekiladigan ekin turlari va yetishtiriladigan mahsulot hajmlarini aniqlash, shu masalalar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish.

2. Tuman hokimining qaroriga muvofiq tashkil etilgan tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanish holatini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruhda ishtirok etish va belgilangan vazifalarni bajarish.

3. “Haj” tadbiriga borishga nomzodlarni mahalla fuqarolar yig‘ini miqyosida saralab olish uchun tuzilgan ishchi guruh tarkibida faoliyat yuritish hamda fuqaroning “Haj” va “Umra” tadbirlariga borish uchun navbatini belgilangan tartibda bekor qilishda ishtirok etish.

4. Fuqarolarning majburiy texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalari inventarizatsiyasi jarayoni bo‘yicha tuzilgan ishchi guruhga rahbarlik qilish.

5. Huquqbuzarliklar oqibatida jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda ixtisoslashtirilgan muassasalar tuzish.

6. Idoraviy qo‘riqlash bo‘linmalarining nazorat tekshiruvida ishtirok etish.

7. O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotishni rasmiylashtirish masalalari yuzasidan shaxsning turgan joyi haqida ma‘lumot bo‘lmagan taqdirda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki uning yaqin qarindoshlarini xabardor qilish choralari ko‘rish.

8. Fuqarolar tomonidan o‘qotar qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini o‘z ixtiyori bilan topshirilishi va ularni qabul qilish bilan bog‘liq xatti-harakatlarni amalga oshirish.

9. Fuqarolar yig‘inlarining ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha komissiyalar bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

10. Tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish va aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan choralarni amalga oshirish.

11. Qabul qilish va saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus muassasa hududidan chetga chiqqan ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslarni nazorat qilish.

12. Otish zonasida joylashgan aholini, tashkilotlar va boshqa obyektlarning mas‘ul vakillarini hayvonlarni otib tashlash tadbirlari o‘tkazilishi to‘g‘risida xabardor qilish, hayvonlarni otib tashlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish, belgilangan xavfli zonalarga fuqarolar va transport vositalarini kiritmaslik choralarni ko‘rish.

13. Otib tashlash ishlari boshlanishidan oldin brigada boshlig‘i bilan birgalikda majburiy tartibda brigada a‘zolari sog‘lig‘ining holatini, qurollarning ruxsat beruvchi hujjatlari mavjudligini, o‘qotar ov qurolining va unga o‘q-dorilarning texnik holatini tekshirish ishlarini olib borish, shuningdek, brigada a‘zolarining aniq vazifalarini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoniga  
2-ILOVA

## Mamlakatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan tizimni samarali joriy etish bo‘yicha

### “YO‘L XARITASI”

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochilar
<b>I. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar</b>				
1.	Fuqarolar yig‘inlarining tashkiliy-huquqiy tuzilmasini takomillashtirish, faoliyat yo‘nalishlari, vazifalari va javobgarlik doirasini aniq belgilash, mavqeyini yanada mustahkamlashga qaratilgan <b>“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi</b> O‘zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish va kiritish.	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2020-yil may	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Oliy sud ( <i>K. Kamilov</i> ), Bosh prokuratura ( <i>E. Yuldashev</i> ), Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
2.	Fuqarolar yig‘ini raisini <b>saylash muddatini uzaytirish</b> , saylov jarayonini takomillashtirish va ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqish va kiritish.	O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi	2020-yil may	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar

3.	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi to‘g‘risidagi nizom loyahasini ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2020-yil mart	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
4.	Fuqarolar yig‘inlari xodimlari va <b>yangi tarkibiy tuzilmalar</b> faoliyatini tartibga solish to‘g‘risidagi nizomlar loyihalarini ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2020-yil aprel	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
5.	Zamonaviy namunali oila mezonlarini hayotga joriy etish, oilalarda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida <b>“Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari”</b> faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularda yoshlarni oila qurishga kompleks tayyorlash yuzasidan interaktiv treninglarni doimiy ravishda o‘tkazish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2020-yil iyun	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
6.	Keksa avlod vakillari uchun mamlakat bo‘ylab <b>ziyosat turizmiga chiqishlarini rag‘batlantirish mexanizmlarini</b> ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2020-yil aprel	Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ( <i>A. Aqqulov</i> ), Transport vazirligi ( <i>E. G‘aniyev</i> ), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Moliya vazirligi ( <i>T. Ishmetov</i> ), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ( <i>B. Xo‘jayev</i> ), Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ( <i>X. Xasilov</i> )
7.	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi	2020-yil may	Davlat boshqaruvi akademiyasi ( <i>X. Azizov</i> ), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ),

	alohida o'quv kurslarini tashkil etish.			Moliya vazirligi ( <i>T. Ishmetov</i> ), Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
8.	<p>Quyidagilarni nazarda tutuvchi keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriyalarda davolanish uchun yo'llanmalar berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini ishlab chiqish:</p> <p>keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning sanatoriyda davolanish uchun yo'llanmalarni Davlat xizmatlari markazlari orqali olish;</p> <p>yo'llanmani olish uchun talab etiladigan hujjatlar sonini qisqartirish;</p> <p>keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, urush va mehnat faxriylari uchun respublika sanatoriylari hamda urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionatini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish, shu jumladan ularning moliyalashtirish tartibini <b>“har bir davolangan holat”</b> metodiga o'tkazish;</p> <p>faol keksa avlod vakillari uchun sanatoriyalarga yo'llanmalarni fuqarolar yig'inlari hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tavsiyalari asosida ajratish.</p>	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2020-yil avgust	Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), Sog'liqni saqlash vazirligi, ( <i>A. Shodmonov</i> ), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ( <i>Sh. Sadikov</i> ), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ( <i>B. Xo'jayev</i> ), Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi ( <i>Q. Rafikov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
9.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 240-son qaroriga quyidagilarni	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2020-yil avgust	Sog'liqni saqlash vazirligi, ( <i>A. Shodmonov</i> ), Moliya vazirligi ( <i>T. Ishmetov</i> ), Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ( <i>B. Xo'jayev</i> ),

	<p>nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish:</p> <p>bepul qabul qilinadigan fuqarolar toifalariga qo'shimcha ravishda o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashovchi I-guruh nogironligi bo'lgan keksalarni qabul qilish;</p> <p>bepul joylashish huquqi bo'lmagan keksalarga ushbu muassasalarda shartnoma asosida pullik tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish tartibini joriy etish.</p>			<p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Adliya vazirligi (<i>R. Davletov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
10.	<p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining markaziy apparati, hududiy boshqarma va bo'limlarini <b>yuqori malakali kadrlar</b> bilan to'ldirish.</p>	<p>Tashkiliy chora-tadbirlar</p>	<p>2020-yil fevral — aprel</p>	<p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (<i>N. Maksumov</i>), Ichki ishlar vazirligi (<i>P. Bobojonov</i>), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
11.	<p>“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan tizimni joriy etishga doir qabul qilingan <b>normativ-huquqiy hujjatlar talablarini tushuntirish</b> bo'yicha tumanlar va shaharlarda Mahallava oilaniqo'llab-quvvatlash vazirligi quyi tuzilmalari hamda fuqarolar yig'inlari xodimlari uchun o'quv seminarlarini tashkil etish.</p>	<p>Tashkiliy chora-tadbirlar</p>	<p>2020-yil mart — iyun</p>	<p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi (<i>P. Bobojonov</i>), Davlat boshqaruvi akademiyasi (<i>X. Azizov</i>), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
<p><b>II. Mahallalarda o'zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirish</b></p>				
12.	<p>Milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni keng targ'ib etish maqsadida “<b>Mahalla — qadriyatlar maskani</b>” haftaliginitashkil etish.</p>	<p>Tashkiliy chora-tadbirlar</p>	<p>2020-yil mart</p>	<p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, O'zbekiston musulmonlari idorasi (<i>U. Alimov</i>), Ma'naviyat va ma'rifat markazi</p>

				(M. Xodjimatov), Yoshlar ittifoqi (A. Sa'dullayev), MTRK (A. Xadjayev), O'zA (A. Ko'chimov)
13.	Mahallalarda aholi o'rtasida <b>"Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari"</b> g'oyasini targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel	Ma'naviyat va ma'rifat markazi (M. Xodjimatov), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, MTRK (A. Xadjayev), O'zA (A. Ko'chimov)
14.	Mahallalarda <b>to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarning</b> ma'naviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan ma'rifiy tadbirlar tashkil etish va o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil mobaynida	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi (M. Xodjimatov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), MTRK (A. Xadjayev), O'zA (A. Ko'chimov)
15.	<b>"Ma'naviyat oiladan boshlanadi"</b> mavzusida ma'rifat oyligini tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi (M. Xodjimatov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Sayidov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (I. Majidov), Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), MTRK (A. Xadjayev), O'zA (A. Ko'chimov)
16.	Fuqarolar yig'inlari hisob raqamlariga jismoniy va yuridik shaxslarning <b>ixtiyoriylik asosidagi mablag'larini va homiylik xayriyalarini masofadan turib tushirish</b> imkonini beradigan elektron dasturni ishlab chiqishva amaliyotga joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Moliya vazirligi (T. Ishmetov),



				manfaatdor vazirlik va idoralar
<b>III. “Oila muqaddas” degan ezgu g‘oyani targ‘ib qilish, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashga ko‘maklashish</b>				
17.	Umumta’lim maktablarida notinch oilalar farzandlari bilan psixologik-korreksion va rivojlantiruvchi ishlarni olib borish maqsadida <b>“Ahil oila”</b> dasturi asosida treninglar tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil mart	Xalq ta’lim vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi
18.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlarda <b>Xotin-qizlar jamoatchilik kengashlarini</b> tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel-may	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi
19.	15-may — <b>Xalqaro oila kunini</b> “Oila muqaddas” shiori ostida keng nishonlashni tashkil etish va o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
20.	Oilalarni mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, namunali oilalarning hayotiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida <b>“Ibratli oila” tanlovini</b> o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may-dekabr	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi ( <i>M. Xodjimatov</i> ), MTRK ( <i>A. Xadjayev</i> ), O‘ZA ( <i>A. Ko‘chimov</i> )
21.	Oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, <b>sudgacha oilaviy nizolarni oldini olishning samarali mexanizmlarini</b> ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi
22.	Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha <b>boshlang‘ich tashkilotlarga</b> har tomonlama ko‘maklashish hamda ularning faoliyati samaradorligini oshirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
23.	Yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan ayollarga manzilli <b>ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam</b> ko‘rsatish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil davomida	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi ( <i>A. Shadmanov</i> ), Bandlik va mehnat munosabatlari

				vazirligi ( <i>N. Xusanov</i> ), Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
24.	Mahallalarda <b>“Maishiy zo‘ravonlik qurboniga aylanma”</b> mavzusida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil iyun oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> )
25.	Doimiy ish bilan band bo‘lmagan xotin-qizlar, uy bekalarining bandligini ta‘minlashga ko‘maklashish bo‘yicha aniq maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ( <i>N. Xusanov</i> )
26.	Oila institutini mustahkamlash va rivojlantirishning ilg‘or usullarini amaliyotda qo‘llash, farovon oilaning zamonaviy modelini targ‘ib qilish maqsadida quyidagi kompleks tadbirlarni amalga oshirish: farovon oilaning zamonaviy modelini faol targ‘ib etuvchi <b>“Family Co-Learning Center”</b> virtual markazini va uning negizida veb-portal; ijtimoiy so‘rovlarni onlayn tarzda o‘tkazuvchi maxsus <b>“Survey”</b> tizimi; <b>“Zamonaviy farovon oila”</b> platformasi va video xostingini joriy qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil sentyabr	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ( <i>Sh. Sadiqov</i> )
27.	“Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlar va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar tajribasi” <b>respublika ayollar forumini</b> tashkil etish.	Chora-tadbirlar rejasi	har yili noyabr	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Fuqarolik hamjamiyatini rivojlantirish markazi ( <i>R. Kamilov</i> ), O‘zNNTMA ( <i>N. Alimov</i> )

#### IV. Mahallalarda huquq-tartibotni mustahkamlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash

28.	Mahallalarda aholi vakillarini taklif qilgan holda <b>“Ma’naviyat soatlari”</b> va <b>“Huquqiy bilimlar”</b> , <b>“Huquqbuzarliklar profilaktikasi”</b> , <b>“Yong‘inlar profilaktikasi”</b> , <b>“Yo‘l harakati xavfsizligi targ‘iboti”</b> kunlarini o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Adliya vazirligi ( <i>R. Davletov</i> ), Ma’naviyat va ma’rifat markazi ( <i>M. Xodjimatov</i> ), Favqulodda vaziyatlar vazirligi ( <i>A. Qo‘ldoshev</i> ), “Vatanparvar” tashkiloti ( <i>R.Niyazov</i> )
29.	Mahallalarda <b>jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan shaxslarga ko‘maklashish</b> ishlarini tizimli ravishda tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil mart oyidan boshlab reja asosida	Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Davlat xavfsizlik xizmati ( <i>A. Azizov</i> ), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari
30.	Mahallalarda aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan <b>“O‘z bolangizni, o‘z uyingizni, o‘z Vataningizni ko‘z qorachig‘idek asrang!”</b> shiori ostida targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Mudofaa vazirligi ( <i>X. Qarshiyev</i> ), Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Majidov</i> ), Xalq ta’limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), “Vatanparvar” tashkiloti ( <i>R. Niyazov</i> )
31.	Yoshlarning turli yot g‘oyalarga kirib ketishi, ular o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida ta’lim muassasalari, Internet klublar va tungi	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel	Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Majidov</i> ),

	ko'ngilochar maskanlarda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.			Xalq ta'limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa'dullayev</i> )
32.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida " <b>Obod va xavfsiz mahalla</b> " respublika ko'rik-tanlovini tashkil etish va o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may-avgust	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari
33.	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida <b>odam savdosi, majburiy mehnat va korrupsiyaga qarshi kurashish</b> bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil sentyabr-dekabr	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Bosh prokuratura ( <i>E. Yo'ldoshev</i> ), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ( <i>N. Xusanov</i> )
34.	Mahallalarda " <b>Hamjihatlik bor joyda jinoyatga o'rin yo'q!</b> " mavzusida targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may oyidan boshlab jadval asosida	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), MTRK ( <i>A. Xadjayev</i> ), O'ZA ( <i>A. Ko'chimov</i> )
35.	Jinoyatchilik oshgan mahallalardagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida fuqarolar yig'inlari xodimlari va profilaktika inspektorlari uchun video-darsliklar tayyorlash hamda masofaviy o'quv seminarlarini tashil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil iyun oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> )
<b>V. "Mahalla — sektor — Xalq qabulxonasi — mahalla" hamkorlik tizimi asosida aholi muammolarini aniqlash va hal etish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish</b>				
36.	Aholi muammolarini aniqlash va hal etishda <b>xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining rolini</b>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may-iyun	Oliy Majlis Senati ( <i>kelishuv asosida</i> ),

	<b>yanada oshirishga qaratilgan mexanizmlarini ishlab chiqish</b> va amaliyotga joriy etish.			Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Xalq qabulxonalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
37.	Yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari hamda hokimlik tizimiga kiruvchi davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar bo'yicha <b>hisobotlarini eshitishni</b> mahallalarda samarali tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil iyun oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
38.	Joylarda qonun ustuvorligini ta'minlash yuzasidan <b>jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni</b> tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan uslubiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil iyun	Adliya vazirligi (R. Davletov), Davlat boshqaruvi akademiyasi (X. Azizov), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi (R. Kamilov), manfaatdor vazirlik va idoralar
39.	Mahallalarda <b>ishsiz bo'lgan fuqarolar bandligini ta'minlashga</b> qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish. Bunda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bandlikni ta'minlash choralari ko'rish: vaqtinchalik, mavsumiy haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etish; kvotalangan ish o'rinlariga ishga joylashtirish; yangi va mavjud bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashtirish; tadbirkorlikni boshlash yoki tomorqasidan samarali foydalanish bo'yicha kreditlar, subsidiyalar berish va boshqalar.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel oyidan boshlab reja asosida	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, tijorat banklari, Savdo-sanoat palatasi (A. Ikramov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
<b>VI. Keksalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab quvvatlash, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda nuroniylarning ijtimoiy faolligini oshirish</b>				

40.	<b>“Mahallada yoshlar bilan muloqot”</b> mavzusida yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel oyidan boshlab har oyda bir marotaba	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
41.	Yoshlarda ona tabiatga mehr uyg‘otish, ularda bog‘ yaratish ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida <b>“Farzandlarimga mendan bog‘ qolsin!”</b> aksiyasini tashkil etish.	manfaatdor vazirlik va idoralar	2020-yil mart-aprel oylari	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
42.	Ta’lim muassasalarida <b>“Mening maqsadim”, “Vatan oilamdan boshlanadi”, “Munosib farzand”, “Yagonadir muqaddas Vatan”, “Konstitutsiya mening taqdirimda”, “Men orzu qilgan hayot”, “O‘zbekiston taraqqiyotida mening hissam”</b> kabi mavzularda insholar tanlovi, davra suhbatlari va ochiq muloqotlar tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel oyidan boshlab reja asosida	Xalq ta’limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Majidov</i> ), Ma’naviyat va ma’rifat markazi ( <i>M. Xodjimatomov</i> ), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> )
43.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlarda <b>Nuroniylar jamoatchilik kengashlarini</b> tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil aprel-may	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi
44.	Ta’lim muassasalari va mahallalarda faxriylar ishtirokida <b>“Uch avlod uchrashuvi”</b> mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ), Xalq ta’limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Majidov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
45.	<b>Yoshlarni sport-sog‘lomlashtirish tadbirlariga keng jalb qilish, ular o‘rtasida jismoniy madaniyatni rivojlantirish maqsadida mahallalarda:</b>	Qo‘shma qaror	2020-yil aprel oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>A. Ikramov</i> ),

	<p>futbol bo'yicha "<b>Futbolimiz kelajagi</b>";</p> <p>mini-futbol bo'yicha "<b>Charm to'p</b>";</p> <p>kurash bo'yicha "<b>Mahallamiz pahlavonlari</b>";</p> <p>stol tennisi bo'yicha "<b>Mahallamiz stol tennisch?lari</b>";</p> <p>shaxmat va shashka bo'yicha oilalar o'rtasida "<b>Biz aql-idrokli oilalarmiz</b>";</p> <p>yengil atletikaning sprint yo'nalishi bo'yicha "<b>Biz epchil va chaqqonmiz</b>";</p> <p>voleybol bo'yicha 14 — 16 yoshli o'smirlar va qizlar o'rtasida sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish.</p>			<p>Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (<i>D. Nabiyev</i>),</p> <p>Xalq ta'limi vazirligi (<i>Sh. Shermatov</i>),</p> <p>Yoshlar ittifoqi (<i>A. Sa'dullayev</i>),</p> <p>Milliy olimpiya qo'mitasi (<i>R. Shoabduraxmonov</i>)</p>
46.	<p>Mahallalarda va ta'lim muassasalarida yosh qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash, yosh oilalar o'rtasidagi ajrimlarni oldini olish maqsadida hayotiy tajribaga ega, obro'-e'tiborli yoshi ulug'onaxonlarni hamda "<b>Buvijonlar maktabi</b>" a'zolarini jalb etgan holda "<b>Onaxonlar o'g'itlari</b>" mavzusida uchrashuvlar tashkil etish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil iyun oyidan boshlab reja asosida	<p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi,</p> <p>Yoshlar ittifoqi (<i>A. Sa'dullayev</i>),</p> <p>manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
47.	<p>Ehtiyojmand, kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun <b>tarixiy va diqqatga sazovor joylarga sayohatlarni tashkil etish.</b></p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may oyidan boshlab reja asosida	<p>Yoshlar ittifoqi (<i>A. Sa'dullayev</i>),</p> <p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi,</p> <p>Xalq ta'limi vazirligi (<i>Sh. Shermatov</i>),</p> <p>Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi (<i>Q. Rafikov</i>),</p> <p>Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (<i>A. Aqqulov</i>)</p>
48.	<p>Ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha <b>5 ta tashabbusni</b> amalga oshirishda fuqarolar yig'inlarining faolligini oshirishga qaratilgan "<b>Eng namunali mahalla</b>" ko'rik-tanlovini o'tkazish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil sentyabr	<p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi,</p> <p>Yoshlar ittifoqi (<i>A. Sa'dullayev</i>),</p> <p>Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (<i>D. Nabiyev</i>),</p> <p>Madaniyat vazirligi (<i>O. Nazarbekov</i>),</p>

				Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi ( <i>Q. Rafikov</i> ), Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
49.	Yoshlar o‘rtasida “ <b>Mahalla — mening taqdirimda</b> ” ko‘rik-tanlovini tashkil etish va o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil noyabr-dekabr	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ( <i>I. Majidov</i> ), Madaniyat vazirligi ( <i>O. Nazarbekov</i> ), Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ), Ma’naviyat va ma’rifat markazi ( <i>M. Xodjimatov</i> ), MTRK ( <i>A. Xodjayev</i> ), O‘zA ( <i>A. Kuchimov</i> )
50.	Keksa avlod vakillari o‘rtasida to‘rt bosqichli “ <b>Yoshlar murabbiysi</b> ” respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil sentyabr-dekabr	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> ), Mudofaa vazirligi ( <i>X. Qarshiyev</i> ), Ma’naviyat va ma’rifat markazi ( <i>M. Xodjimatov</i> ), Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ), MTRK ( <i>A. Xadjayev</i> ), O‘zA ( <i>A. Ko‘chimov</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
51.	Mahallalar va ta’lim muassasalarida keksa avlod vakillari ishtirokida “ <b>Ibrat maktabi</b> ”, “ <b>Xonadon fayzi</b> ”, “ <b>Qarisi bor uyning parisi bor</b> ”, “ <b>Donishmandlik fasli</b> ” kabi mavzularda turkum targ‘ibot	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi ( <i>M. Xodjimatov</i> ), Yoshlar ittifoqi ( <i>A. Sa’dullayev</i> ),



	tadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar o'tkazish.			Xalq ta'limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ( <i>I. Majidov</i> )
52.	Nuroniylar va pensiyadagi harbiy xizmatchilar ishtirokida umumta'lim maktablarida <b>"Keksalar ma'rifati"</b> mavzusidagi tadbirlarni tashkil etish.	Targ'ibot tadbirlari	2020-yil aprel oyidan boshlab har oyning uchinchi juma kuni	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi ( <i>Sh. Shermatov</i> ), Mudofaa vazirligi ( <i>H. Qarshiyev</i> ), Ichki ishlar vazirligi ( <i>P. Bobojonov</i> )
53.	Mahallalarda, ayniqsa eng chekka mahallalarda <b>"Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash — odamiylikning eng oliy mezonidir"</b> mavzusida keksa avlod vakillari uchun xayriya tadbirlarini tashkil etish.	Qo'shma qaror	2020-yil aprel oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi ( <i>A. Shadmanov</i> ), "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasi ( <i>S. Inamova</i> ), manfaatdor vazirlik va idoralar
54.	Mahallalarda <b>"G'ayratli keksalar" sport guruhlarini tuzish</b> hamda keksalarni yoshi va holatiga qarab jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga hamda faol turmush tarzini yuritishga jalb etish.	Qo'shma qaror	2020-yil aprel oyidan boshlab reja asosida	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi ( <i>D. Nabiyev</i> ), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
55.	<b>Quyidagilarni tayyorlash:</b> O'zbek xalqining keksalarni e'zozlash bo'yicha ko'p asrlik qadriyatlari va an'analarini aks ettiradigan <b>badiiy filmlar</b> ; o'zbek xalq ertaklari motivlari bo'yicha <b>"Qari bilganni pari bilmas" multiplikatsion filmlar</b> turkumi; bosh qahramonlari keksalar bo'lgan <b>teatr spektakllari</b> ; Said Ahmad va Saida Zunnunova, Oybek va Zarifa Saidnosirova, Abdulla Qahhor va Kibriyo Qahhorova, Pirimqul Qodirov va Shamsiyaxonim, Erkin	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil mart oyidan boshlab reja asosida	"O'zbekkino" Milliy agentligi ( <i>F. Abduxalikov</i> ), Madaniyat vazirligi ( <i>O. Nazarbekov</i> ), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi ( <i>S. Sayidov</i> ), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Moliya vazirligi ( <i>T. Ishmetov</i> ), "Mahalla" xayriya jamoat fondi

	<p>Vohidov va Gulchehra Vohidovalar, Hamid Olimjon va Zulfiya, Abdulla Oripov va Xanifa Oripova kabishaxslarning milliy oilaviy qadriyatlarni asraganligi, hayot sinovlaridan munosib o'tganligi haqidagi filmlar;</p> <p>keksa yoshida fan, madaniyat va san'atda katta natijalarga erishgan, buyuk ilmiy, adabiy, musiqali asarlar va boshqa madaniy qadriyatlar yaratgan vatandoshlarimiz hayoti va faoliyati haqidagi <b>“Umrboqiy siymolar” hujjatli filmlar.</b></p>			
56.	<p><b>Keksalarning to'laqonli hordig'ini ta'minlash bo'yicha</b> quyidagi tadbirlarni amalga oshirish:</p> <p>bog'larda, aholining madaniyat va dam olish markazlarida, mahalla guzarlarida taniqli yozuvchilar, shoirlar, artistlar va boshqa atoqli fan, madaniyat va san'at arboblari bilan ijodiy uchrashuvlar tashkil etish;</p> <p>barcha “Saxovat” internat-uylarida, keksalarni sog'lomlashtirish nazarda tutilgan sanatoriylarda ijodiy uchrashuvlarni, spektakllar va kinofilmlar namoyishini tashkil etish;</p> <p>“Umrboqiy navolar” mavzusida qadimiy cholg'u asboblarida ijro etuvchilarning respublika ko'rik-tanlovini tashkil etish;</p> <p>rasmlar, milliy liboslar, sovg'alar, oshpazlik va qandolatchilik mahsulotlari ko'rgazmalarini, fotoko'rgazmalarni respublikada istiqomat qiladigan barcha millatlar keksalari ishtirokida tashkil etish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may oyidan boshlab reja asosida	Madaniyat vazirligi ( <i>O. Nazarbekov</i> ), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Badiiy akademiya ( <i>A. Nuriddinov</i> ), Yozuvchilar uyushmasi ( <i>S. Sayidov</i> ), Bastakorlar uyushmasi ( <i>R. Abdullayev</i> )
57.	<p>Yoshlar qalbida faxr-iftixor tuyg'ularini shakllantirish maqsadida <b>mahallalarda faxriylar va keksalar ishtirokida xalq sayllarini o'tkazish.</b></p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil avgust-sentyabr	Madaniyat vazirligi, ( <i>O. Nazarbekov</i> ), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar

				Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
58.	<p><b>“Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasin” shiori</b> ostida tadbirlarni amalga oshirish, ularda quyidagilarni nazarda tutish:</p> <p>respublikaning har bir hududidan keksa yoshdagi 1000 kishini, shu jumladan kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalarni tarixiy joylar bilan tanishtirish uchun sayyohlik safarlari tashkil etish;</p> <p>urush va mehnat faxriylari ishtirakida bepul ekskursiya poyezdini tashkil qilish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil may-oktyabr	<p>Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi,</p> <p>“O‘zbekiston temir yo’llari” AJ (<i>X. Xasilov</i>),</p> <p>Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi (<i>A. Aqqulov</i>),</p> <p>Madaniyat vazirligi (<i>O. Nazarbekov</i>),</p> <p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
59.	<p>Keksa nuroniylar uchun “Nuroniylar maskanlari” majmualarida, mahalla guzarlarida hamda aholining madaniyat va dam olish markazlarida, madaniyat uylarida, istirohat bog‘larida <b>“Ehtirom, e’zoz, e’tibor”</b> konsert dasturlarini tashkil etish.</p>	Qo’shma qaror	2020-yil iyul-avgust	<p>Madaniyat vazirligi, (<i>O. Nazarbekov</i>),</p> <p>Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi,</p> <p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
<p><b>VII. Aholining tomorqa madaniyatini rivojlantirish, obodonlashtirish va ko’kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish</b></p>				
60.	<p>Mahallalarda uyma-uy yurgan holda <b>aholiga tomorqadan samarali foydalanish bo’yicha targ‘ibot ishlarini olib borish.</b></p>	Targ‘ibot tadbirlari	2020-yil mart-aprel	<p>Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (<i>A.Haitov</i>),</p> <p>Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi,</p> <p>Qishloq xo’jaligi vazirligi (<i>J.Xodjayev</i>),</p> <p>Suv xo’jaligi vazirligi (<i>Sh.Hamroyev</i>),</p> <p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
61.	<p>Har bir mahallani <b>“Bir mahalla — bir mahsulot”</b> tamoyili asosida meva-sabzavot yetishtirish,</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil mart	<p>Fermer, dehqon xo’jaliklari</p>

	<p>issiqxonalar tashkil etish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyunchilik kabi yo‘nalishlarga ixtisoslashtirish chora-tadbirlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish.</p>		<p>oyidan boshlab reja asosida</p>	<p>va tomorqa yer egalari kengashi (<i>A.Haitov</i>), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
62.	<p><b>Tomorqa yer egalarining ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligini</b> mahallalarda muntazam muhokama qilish choralari ko‘rish.</p>	<p>Muhokama yig‘ilishlari</p>	<p>2020-yil aprel oyidan har oyda bir marotaba</p>	<p>Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Fermer, dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalari kengashi (<i>A.Haitov</i>), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
63.	<p>Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar va qabristonlarni obodonlashtirish, ajdodlar va marhumlarga hurmat bajo keltirish, ularning qabrlarini <b>obod qilish</b> — <b>har bir fuqaroning insoniy burchi ekanligi</b> haqida aholi bilan suhbatlar o‘tkazish.</p>	<p>Tashkiliy chora-tadbirlar</p>	<p>2020-yil mart oyidan boshlab muntazam ravishda</p>	<p>Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi (<i>U. Alimov</i>), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
64.	<p><b>“Mahallaning rivojlanishi va obodligiga hissa qo‘shgan eng yaxshi tadbirkor”</b> ko‘rik-tanlovini o‘tkazish.</p>	<p>Tashkiliy chora-tadbirlar</p>	<p>2020-yil avgust</p>	<p>Savdo-sanoat palatasi (<i>A. Ikramov</i>), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
65.	<p><b>Mahallalarda turistik jozibadorlikni oshirishga</b> qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.</p>	<p>Tashkiliy chora-tadbirlar</p>	<p>2020-yil aprel</p>	<p>Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (<i>A. Aqqulov</i>),</p>

				manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
--	--	--	--	---

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoniga 3-ILOVA

**Fuqarolar yig‘inlari raislari va ularning oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha hamda obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, shuningdek, oila va xotin qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassislarining**

**MEHNATGA HAQ TO‘LASH FONDI TARKIBI \***

T/r	Nomlanishi	Rais	Raisning oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha hamda tadbirkorlik, tomorqa va obodonlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari	Oila va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassis	Moliyalashtirish manbasi
1.	Yagona tarif setkasi bo‘yicha mehnatga haq to‘lash razryadlariga ko‘ra lavozim maoshlariga koeffitsiyent qo‘llanilishi	1,4 baravar	1,25 baravar	1,2 baravar	O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti
2.	Mehnatga haq to‘lashning Yagona tarif setkasi bo‘yicha razryadlari	8	7	6	
	Posyolkalar, qishloqlar, ovullar va shaharlar mahallalarining fuqarolar yig‘inlarida Shaharlar hududidan tashqarida joylashgan mahallalar fuqarolar yig‘inlarida	7	6	5	
3.	Lavozim maoshlariga har oylik ustama haq (mehnatni rag‘batlantirish koeffitsiyenti)	20 foiz			
4.	Lavozim maoshlariga alohida mehnat sharoitlari uchun har oylik ustama haq	26 foiz			
5.	Xodimlarni rag‘batlantirish maqsadida xodimlarni moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi	Mehnatga haq to‘lash fondining 15 foizi miqdorida tashkil qilinadi			
6.	Moddiy yordam ko‘rsatish	Bir oylik lavozim maoshi miqdorida			O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi mablag‘lari

\* 2020-yil 1-martdan kiritiladi.

Izoh: Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 12-apreldagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari va notarial idoralar xodimlari mehnatiga haq to‘lashning tarif setkasini joriy etish to‘g‘risida”gi 147-son qarorining 4-bandi uchinchi xatboshisi fuqarolar yig‘ini raisi va uning oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha hamda tadbirkorlik, tomorqa va obodonlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, shuningdek, oila va xotin qizlar masalalari bo‘yicha mutaxassis lavozimlariga tatbiq etilmaydi.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.02.2020-y., 06/20/5938/0187-son; 03.04.2020-y., 06/20/5978/0393-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son)*